

JADIDCHILIK HARAKATI YIRIK NAMOYONDASI MUNAVVARQORI
ABDURASHIDXONOV FAOLIYATIGA TASNIF

Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
"O'zbekiston tarixi" kafedrasida katta o'qituvchisi
Murodova Shaxnoza Yaminjon qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakati yirik namoyondasi bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti, faoliyati va jadidchilik harakatida tutgan o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Munavvarqori Abdurashidxonov, Turkiston, jadid, yangi usul maktablari, Adibi avval, Adibi soniy, Yer yuzi, Turon, Najot, Kengash.

**КЛАССИФИКАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АБДУРАШИДХАНОВА,
КРУПНОГО ПРЕДСТАВИТЕЛЯ ДИНАМИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ**

Муродовой Шахнозы Яминовна
2 курс по специальности история
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни, творчестве и роли Мунавваргари Абдурашидханова, крупного представителя движения джадидизма.

Ключевые слова: Мунавваркори Абдурашидханов, Туркестан, Джадид, Новые Усульские школы, Адипи первая, Адипи вторая, Земля, Туран, Наджот, Совет.

**CLASSIFICATION OF THE ACTIVITY OF ABDURASHIDKHANOV, THE
LARGE REPRESENTATIVE OF THE DYNAMIC MOVEMENT**

Murodova Shaxnoza Yaminjon qizi
2-nd year history major
Chirchik State Pedagogical University

Annotation: This article talks about the life, work and role of Munavvargari Abdurashikhanov, a major representative of the Jadidism movement.

Key words: Munavvarqori Abdurashidkhanov, Turkestan, Jadid, New Usul schools, Adibi first, Adibi second, Earth, Turan, Najot, Council.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadidchilik Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat hisoblanadi. "Jadid

so'zining lug'aviy ma'nosi "yangi" degan ma'noni bildiradi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod qilishni, o'z vatanlarini esa mustqail ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar birinchi o'rinda edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Bu ishlarni amalga oshirishda jadidchilik harakatining yetakchi rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonovning xizmatlari nihoyatda katta.

U 1878-yil Toshkent shahrining Shayx Xovandi Tahur dahasi, Darxon mahallasidagi elga taniqli oilada dunyoga keldi. Unga yaxshi niyatlar bilan padari buzrukvor madrasa mudarrisi Abdurashixon Sotiboldixon Olimxon o'g'li va volidayi mehriboni, otinoyi Xosiyatxon (1841-1941) Xonxo'ja Shorahimxo'jayev (1841-1941) ning qizi Munavvar, ya'ni nurli va nur bilan yo'g'irilgan degan ma'noni anglatuvchi ism qo'ydilar. [1; 4-5]

Otasidan erta yetim qolgan Munavvar va akalarining ta'lim tarbiyasi, hayotda o'z o'rnini topishi onasi Xosiyatxon ayaning zimmasiga tushadi. Munavvar yoshligidan ilmga chanqoq va o'tkir zehni bo'lib o'sdi. U dastlabki ta'lim tarbiyani onasidan oladi. So'ng esa o'z davrining mashhur o'qituvchisi Usmon domladan ilmi qiroat va tajvidni o'rganib, hofizi Qur'on bo'lgan. U Buxorodagi Mir arab madrasasida tahsil olgan, ammo tahsilni oxiriga yetkazmay, Toshkentga qaytib, imomlik va muallimlik bilan shug'ullangan. Diniy va dunyoviy sohada keng dunyoqarash sohibi Munavvarqori aholi orasida katta obro' e'tiborga ega bo'lgan.

Munavvarqori jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi hamda jadid maktablarini ochilishini tashabbuskori, milliy gazeta va jurnallarning asoschisi bo'lgan.

U jadidchilik harakatidagi faol ishtirokini XIX asr oxirlaridan boshlagan va 1901-yilda birinchilardan bo'lib Toshkentda o'z uyida yangi usul maktabini ochgan. Keyinchalik bunday maktablar shaharning turli joylarida ochilgan. Bu maktablar uchun 1907-yilda "Adibi avval", "Adibi soniy", darsliklarini yozgan, "Tajvid al-Qur'on", "Yer yuzi" o'quv qo'llanmalarini tuzgan va chop ettirgan, shuningdek, bolalar uchun qator she'r va hikoyalar muallifi bo'lgan. [2; 256-257]

Bu haqda uning zamondoshi, shogirdi, jaded pedagoglaridan Mo'minjon Muhammadjonov-Toshqin quyidagilarni yozadi: "Munavvarqori Shayxovand Tahur dahalik Mirdadajon degan bir boyning mahmonxonasida maktab ochib, bir ikki yildan beri Abdusame'qori degan bir kishi bilan bola o'qitishib turmoqda bo'lganligini aytdilar. Borib ko'rdim: kattagina ham keng bir tashqarida 15-20 chog'li bolalarni o'qitmoqda ekanlar. Bular bilan ko'rishib so'rashib bo'lib, bolalarning o'qishlarini sinf-sinflarida yurib ko'rib chiqdim. Hozirda to'rt sinf boshlang'ich (ibtidoiya) maktab bo'lib, yaxshigina tartiblik: parta, katta qora taqta, yer yuzi bo'laklarining (qit'alarining) qisqacha ham butun "xarita"lari bor ekan. Hozirda shul tartibda ochilgan "yangi tartibli maktab" 9-10 yerda borligini bildirdilar. Bu yangi tartib maktablarning Toshkent shahrida joriy bo'lib ketishiga birinchi sabab Munavvarqori bo'lib, barchasining purogromini shul tuzib bergan". [3; 14]

1909-yilda Toshkentda M. Abdurashidxonov "Jamiyat hayriya" tashkilotiga asos solgan va "Turon" jamiyatini ochgan. 1906-yilda ilk o'zbek gazetalaridan biri - "Xurshid" ni

nashr qila boshlagan. Keyinchalik, 1917-yilda, "Najot", "Kengash" gazetalari bosh muharri bo'lib ishlagan va "Sadoi Turkiston" gazetasining tahririyat bo'limini boshqargan. [2; 256]

Ta'kidlaganimizdek Munavvarqori Abdurashidxonov jadidchilik harakati faol namoyondasi bo'lgan. U har tomonlama mukammal va o'z fikr doirasiga ega bo'lgan vijdonli kadrlar tayyorlaydigan dorilfunun ochish g'oyasini ilgari surgan. Jadid maktablarida dars o'tish dasturlarini, darsliklarni yaratishda Munavvarqori Abdurashidxonovni o'rni beqiyos. Munavvarqori Abdurashidxonov 1929-yil qomoqqa olinib, Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagankova qabristoniga dafn etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Xolboyev. Jadidlar. Munavvar qori Abdurashidxonov. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent-2022.
2. D.Alimova. Jadidchilik fenomeni. "Akademnashr". Toshkent-2022.
3. Ulug'bek Dolimov. Turkistonda jadid maktablari. "Universitet". Toshkent-2006.